

TRANSPORT VOSITALARINI BURILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shadiev Sanat

Tashkent State Transport University

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada transport vositalarini burilish mexanizmlarini takomillashtirish haqida so`z yuritiladi

KALIT SO`ZLAR: avtomobil modeli, deformatsiya, to`sinq elementlarida, “Mersedes-Bens” firmasi, xronometraj o‘tkazish

KIRISH

Yildan yilga mamlakatimizda yengil va yuk avtomobillarini ishlab chiqarilishi ko‘payib, ko‘cha va yo‘llarda ularning harakat oqimi ortib bormoqda. Bu esa transport vositalari, haydovchi va yo‘lovchilarning xavfsizligini ta’minlashda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Yo‘llarda avtomobillar harakati keskin ortishi harakat xavfsizligini yuqori darajada ta’minlashni qiyinlashtiradi, shuning uchun har xil zarbalarga bardoshli bo‘lgan avtomobillar ishlab chiqarish lozim. Avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar oldida turgan asosiy vazifalardan biri ishlab chiqarishda avtomobillarni har xil zarbalarga sinashga tekshirish muhim ekanligini bildiradi.

Hozirgi vaqtida mavjud bo‘lgan va avtomobillarni zarba hosil qilib sinovchi qurilmalar to‘rtta asosiy guruhgaga ajratish mumkin:

1. Avtomobil qismlarini mustahkamlikka sinashga mo‘ljallangan zarba stendlari;
2. Avtomobillarni to‘qnashuv paytidagi kontakt kuchi va tezlanish qonunlarini o‘rganishga mo‘ljallangan zarba stendlari;
3. Real sharoitlarda natural ob’ektlarga ta’sir qiluvchi kuch va tezlanishlarni aniqlashga mo‘ljallangan zarba stendlari;
4. Zarba uyg‘otish usuli bilan sistemaning chastota xarakteristikalarini (tebranish xususiyatlarini) o‘rganishga mo‘ljallangan zarba stendlari. Zarba stendlariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri avtomobil modeli yoki uning maketingning tezlik olish jarayonida yuklanish darajasi minimal bo‘lib, ishchi miqdor o‘n foizdan oshib ketmasligi kerak. Buning uchun avtomobil tezlik olishini ob’ektning yuqorida erkin tushishi bilan hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda yuklanish talab etilgan miqdordan oshib ketmaydi, ya’ni bir birlikka teng deb qabul qilinadi. Zarba hodisasini tajribada ikki usul bilan sinash mumkin:

1. Avtomobilning o‘zini sinash;
2. Avtomobilning ayrim qismlarini sinash.

Odatda avtomobillarni zARBAGA sinashda sun’iy ravishda avariya holati barpo etiladi. Ushbu tajribalarning asosiy kamchiliklari quyidagilar: transport vositasini tajriba o‘tkazishda bir ikki

martadan ortiq foydalanib bo‘lmaydi, ya’ni tajribalar soni cheklangan bo‘ladi, sinov sharoitini nazorat qilish qiyin bo‘ladi, tajriba o‘tkazish uchun katta material va mablag‘ talab etiladi. Yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni sinash maxsus poligonlarda o‘tkaziladi. Buning uchun sinalaётган avtomobil qo‘zg‘almas to‘sinqqa yoki boshqa bir avtomobil bilan turli vaziyatlarda to‘qnashish xosil qilib zarba parametrlari yoki avtomobilning keyingi holatlari aniqlanadi. Masalan: avtomobillarni zARBAGA sinovchi stend 1960 yil “Mersedes-Bens” firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu stend ikkita lebyodka yordamida trosning harakati orqali relsda harakatlanuvchi platforma-telejkadan iborat. Platforma ustiga avtomobilning oldingi o‘rindig‘i rul boshqarmasi bilan birgalikda yoki avtomobilning barcha old qismi boshqaruv organlari bilan birgalikda qo‘zg‘almas qilib o‘rnataladi. Bunda rels bo‘ylab harkat qilayotgan telejka zarur bo‘lgan boshlang‘ich tezlikka erishtiriladi va shundan keyin qo‘zg‘almas berer yoki devorga uriladi. Barer devorining yuzasi elastik materialdan tayyorlanadi yoki amortizatorlar bilan jixozlangan bo‘ladi. Ushbu sinovlarda telejkani harakatga keltirish uchun prujina kuchida, siqilgan xavo bosimidan yoki portlovchi moddaning yonishidagi reaktiv kuchdan foydalanilgan. 1965 yilda avtomobilsozlik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar asosatsiyasi avtomobillarni zARBAGA va to‘qnashishlarga sinovchi maxsus laboratoriya tashkil qildi. Sinalayotgan avtomobil uzunligi 52 metr bo‘lgan maxsus yo‘l ustida induksion elektrodvigatel yordamida harakatlantiriladi. Bunda avtomobilning boshlang‘ich tezlanishi 15g miqdorigacha cheklangan bo‘ladi. Avtomobilning massasi va turiga qarab sinovlarni o‘zgartirib turish uchun elektrodvigatelda 10 pozitsiyali kuchlanishli boshqarish pulti mavjud. Avtomobil to‘sinqqa 3 metr masofa qolganda yo‘lak ostida joylashgan elektrodvigatel avtomatik ravishda avtomobildan ajratiladi va tormozlanadi. Bu vaqtida avtomobil o‘z harakatini davom ettirib inersiya kuchi bilan hosil qilgan tezligini yo‘qotmagan holda to‘sinqqa uriladi. Sinov bir necha sekundlar ichida sodir bo‘ladi. Sinovni avtomatik boshqarish aniq xronometraj o‘tkazish va barcha sinov sharoitlarini yaratishga imkon beradi. Bir paytning o‘zida yuqori tezlikdagi kinoapparat èrdamida sinov jarayonini yozib olish mumkin. Tavsiya etilayotgan zarba aravachasining konstruksiyasi avtomobilning to‘sinq bilan urilishidagi oxirgi natijalarni aniqlab olish uchun xizmat qilib, boshqaruv va tezlikni aniqlashda yuqori tezlikdagi kinoapparat yordamida sinov natijalarini qayd etish mumkin. Real holatlarda avtomobil yo‘l sathidagi yoki chetidagi to‘sinqlarga bexosdan urilganda o‘zaro to‘qnashuvchi ob‘ektlar orasida juda kichik vaqt ichida maksimal qiymatga erishuvchi zarba kuchi xosil bo‘ladi. Zarba kuchining ta’sir chizig‘i to‘qnashishga sabab bo‘ladigan avtomobilning harakat yo‘nalishiga mos keladi. Agar umumiyl holda to‘sinq qo‘zg‘aluvchan bo‘lib, uning absalyut qattiq jism emasligi e’tiborga olinsa, u holda to‘sinq bilan ma’lum kontakt yuza orqali ta’sirlashadigan avtomobil qismlari ham, to‘sinq elementlari ham deformatsiyaga uchraydi. Shu bilan birga to‘sinqning harakat yo‘nalishi bo‘ylab siljishi og‘irlik markazi atrofida aylanishi yoki gorizantalga nisbatan biror burchak ostida otilib ketishi kabi holatlar kuzatiladi.

XULOSA

Tajriba natijalaridan ko‘rinadiki, yo‘Ining qiyalik darajasini o‘zgartirish usuli bilan zarba kuchini ma’lum chegaragacha oshirib borish va har xil dinamik koeffitsientlarga erishish mumkin. Keyingi tadqiqot ishlarida dinamik koeffitsientlarning mashtab modeliga asoslanib, haqiqiy avtomobilarning zarba paytidagi dinamik xususiyatlari bevosita ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflanmasdan solishtirish usuli bilan aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. V.N.Ivanov. «Avtomobilarning faol va passiv xavfsizligi» M:, «Oliy maktab» 1974 yil.
2. Azizov K.X. “Harakat havfsizligi asoslari” Toshkent 2010 yil.
3. Tailakov, A. A. va Dadaeva, G. S. (2019). Tabiiy muhitning radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi. Okazova Zarina Petrovna, shifokor, 446.
4. Imamova, F. M., & Dadaeva, G. S. Melioratsiya. 21-asr olimi, 19.
5. Suvanqulov, Sh., Islomov, Sh., Qarshiboev, Sh., & Berdiyorov, T. (2015). Postlarda paydo bo‘ladigan zararli moddalarni hisoblash usullari transport vositalariga kundalik xizmatlar ko‘rsatish.
6. Shadiev Sanat. (2022). REPAIR OF MOTOR VEHICLE TIRES. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(10), 80–82. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/TEX6D>
7. Shadiev Sanat. (2022). AVTOTRANSPORT VOSITALARINI SHINALARINI TIKLASH. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(09), 180–182. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/E2NTJ>.